



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqqa boshlagan



www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) https://www.twitter.com/zarnews_uz

OKRUG KOMISSIYASI TARKIBIGA NOMZODLAR TAVSIYA ETILDI

17-mart kuni xalq deputatlari viloyat Kengashining sakson uchinchi sessiyasi bo'lib o'tdi. Sessiyani Kengash kotibiyati mudiri Z.Karimov olib bordi.

Dastlab viloyatda asosiy turdag'i oziq-ovgat mahsulotlarini kafolatli yetkazib berish va narxlar barqarorligini ta'minlash bo'yicha belgilangan vazifalar yuzasidan "Yo'li xaritasi"ni tasdiqlash to'g'risidagi masala ko'rildi. Ta'kidlanishicha, 2023-yil hosili uchun asosiy maydonlarning 35,4 ming gektariga kartoshka, 7,8 ming gektariga piyoz, 6,9 ming gektariga sabzi, 15 ming gektariga moyli, 19,7 ming gektariga ozuqa ekinlari ekish belgilangan. Natijada asosiy maydonlarda 646,3 ming tonna kartoshka, 211,5 ming tonna piyoz, 144,1 ming tonna sabzi, 22,7 ming tonna moyli ekinlar, 336,9 ming tonna ozuqa mahsulotlari yetkizililadi.

"Yo'li xatirasi"da 2023-yilda qoramol, qo'y va parranda go'shti hamda tuxum yetishtirishni tashkil etish bo'yicha belgilangan ishlar ham ma'lum qilindi. Jumladan, fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi korxonalarida yirik shoxli qoramol bosh sonini 1 million 886,6 ming boshga, qo'ylar sonini 2 million 628,0 ming boshga, tuxum yo'nalihidagi parranda sonini 7 million 780 ming boshga, go'sht yo'nalihidagi parranda sonini 6 ming 734 ming boshga (102 foiz) yetkazish belgilangan. Natijada barcha toifadagi xo'jaliklarda 323,9 ming tonna tirik vaznda go'sht, 1,4 million tonna sut, 1 milliard 448,8 million dona tuxum ishlab chiqarish ta'minlandi.

Deputatlardan viloyatda asosiy turdag'i oziq-ovgat mahsulotlarini kafolatli yetkazib berish va narxlar barqarorligini ta'minlash bo'yicha belgilangan vazifalar yuzasidan "Yo'li xaritasi"ni tasdiqladi.

Sessiyada O'zbekiston Respublikasi referendumni o'tkazuvchi 7-Samargand okrugi komissiyasi a'zoligiga nomzodlar tavsiya etildi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 2023-yil 10-martdagi hamda Senatning 14-martdagi qarorlariga ko'ra, 2023-yil 30-aprel kuni "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi referendumni o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining 2023-yil 16-mart kuni o'tkazilgan majlisida referendumni o'tkazish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri chegarasi doirasida 14 ta referendum okrugi tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Referendumga doir qonunchilikka ko'ra, referendum o'tkazuvchi okrug komissiyasi a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahri Kengashlari tavsiyasi asosida Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Shundan kelib chiqib, referendum o'tkazuvchi 7-Camarqand okrug komissiyasi tarkibiga saylovgaga hamda referendumlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish borasida ish tajribasiga ega bo'lgan, aholi o'rtasida obro'-e'tibor qozongan fuqarolar orasidan komissiya raisi, o'rinosboshi, kotibi va 18 nafr a'zo nomzodi deputatlari tomonidan ma'qullandi.

Bu haqdagi qaror O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasiga taqdim etiladi.

Sessiyada muhokama etilgan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilindi.



NAVRO'Z – QADRIYAT, YOSH AVLODGA MEROS

Qo'shrabol tumanida Navro'z munosabati bilan o'tkazilgan tadbir har yilidan-da ko'tarin-ki ruhda tashkil etildi. Qirqovul qishlog'iда yashil maysalar bilan qoplangan qir-adirlar bag'rida bo'lib o'tgan sayilda milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz aks etgan ko'rgazmali chiqishlar, sport musobaqalar, mushoiralar, taniqli san'atkorlarning kuy-ko'shiqlari to'planganlarga chinakam bahoriy kayfiyat ulashdi. Uloq-ko'pkari musobaqasi yurtimizning turli viloyatlari, hatto qo'shi mam-lakatlar chavandozlarini bir joyga jamladi.

- Ko'pkari mard yigitlar o'yini, - deydi mehnat faxriysi Tilov Omonov. - To'g'risi, orada ko'p yillar bu musobaqa o'tkazilmay qo'ygandi. Keyingi yillarda mammakatimizda sportiga, xususan, ko'pkariga alohida e'tibor qaratilyapti. Bu galgi o'tkazilgan musobaqada turli hududlardan, har xil millat vakillari qatnashgani bilan ahamiyati bo'idi. Ko'pkarida qatnashish istagida kelgan mehmonlar xushnumalilik bilan kutub olindi, qo'noqlar tashkil qilindi.

Bayram tadbiри doirasida ijtimoiy

ko'makka muhitoj oilalarning 20 nafr farzandi uchun xatna to'ylari o'tkazildi, ularga sovg'alalar ulashildi.

Navro'z Nurobod tumanida ham keng nishonlandi. Tuman markazidagi "Mehnat" o'yingohida o'tkazilgan bayram tadbirida milliy taomlar ko'rgazmasi, xalq o'ynlari, baxshilar va folklor jamoalarining chiqishlari namoyish etildi.

- Bugungi kunda yosh avlod ko'proq telefonagi o'ynlarga qiziqadi, - deydi Lutfiya Safarov. - Hoppak, makmak, chillak, podato'p va boshqa shu kabi q-

dimiy o'ynlarimiz deyarli unutilib ketyapti. Bu o'ynlarda ishtirot etgan kishi ham ruhan, ham jismonan kuch oladi. Ularning inson salomatligi uchun ahamiyati katta. Navro'z bayrami shu kabi foydali o'ynlarni avloddan avlodga meros qoldirish uchun xizmat qiladigan cutlug' bayram.

Yangilanish va yasharish bayrami - Navro'z tantanalari viloyatimizning boshqa hududlarda ham ko'tarinkin kafiyatda davom etyapti.

To'Iqin SIDDIQOV.

YANGILANAYOTGAN KONSTITUTSIYA

sud-huquq sohasidagi islohotlar natijalarini
huquqiy mustahkamlaydi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining shu yil 10-martda bo'lib o'tgan majlisida "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi qabul qilindi.

Unga ko'ra, amaldagi Konstitutsiyaga 27 ta yangi modda kiritilmoqda, moddalar soni 128 tadan 155 taga oshmoqda, Konstitutsiyamizning amaldagi 275 ta normasi 434 taga ko'paymoqda, ya'ni Konstitutsiyamiz 65 foizga yangilanmoqda.

Xususan, mulk daxlsizligi va u bilan bog'liq huquqlarning ta'minlanishi davlat tomonidan kafolatlanishi, mulkiy huquqlarni cheklash faqat sud qarori asosida bo'lishi mustahkamlanmoqda.

Bundan tashqari, advokaturaga bag'ishlangan alohida bobning kiritilishi sud hokimiyyati, prokuratura organlari qatorida odil sudslovning muhim tarkibiy qismi sifatida advokaturaning huquqiy maqomi belgilanishiga xizmat qiladi.

Yangilanayotgan Konstitutsiyamizda "Inson huquq va erkinliklari ta'minlash - davlatning oliy maqsadidir", degan norma belgilanmoqda.

Ushbu maqsadga erishish uchun insонning sha'ni va qadr-qimmati daxlsizligi, davlat organlari tomonidan huquqiy ta'sir choralarini mutanosiblik prinsipiiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetar bo'lishi kerakli belgilanmoqda.

Aybsizlik prezumsiyasi yanada kuchaytilmoqda. Jumladan, Konstitutsiyamizning amaldagi 26-moddasida shaxsning ishi sudda ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblangan bo'lsa, endilikda sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha u aybsiz hisoblanishi mustahkamlanmoqda.

Konstitutsiyada insoning shaxsiy huquqlari va erkinliklari kafolati eng ilg'or xalqaro standartlarga muvofiq kuchaytilmoqda. Xususan, shaxsning sud qarorisiga 48 soatdan ortiq umiddat ushlab turilishi mumkin emasligi, ushbu muddat ushlab turish qonuniyligi va asosiligi sudda isbotlanmasa, shaxs darhol ozod qilinishi ("Xabeas kor-

pus" instituti) hamda shaxsni ushlab turish chog'ida uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari unga tushunarli tilda tushuntirilishi kerakligi ("Miranda qoidalari"), shuningdek, ayblanuvchi va sundlanchilarga o'ziga qarshi ko'sratma bermaslik, ya'ni "sukut saqlash" huquqi belgilanmoqda. Ushbu qoidalara shaxsiy erkinlik daxilsizligini va insonlarning noqonuniga hibsga olishga yo'li qo'ymaslikni kafolatlaydi.

Ilk marotaba yozishmalar, telefon orqali so'zlashuvlar, pochta, elektron xabarlar va boshqa xabarlari sir saqlash huquqi faqat sudning qaroriga asosan cheklanishi mumkinligi belgilanmoqda. Ya'ni, hozirgi vaqtida ushbu vakolat prokurorga tegishli bo'lib, uning sudlarga o'tkazilishi shaxs daxlsizligi va konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashda tub burilish bo'ladi.

Shaxs qarindoshlarining sudlanganligi asosi bilan huquqlari cheklanishi mumkin emasligi qat'iy belgilanishi inson o'zining yaqniniyo yo'li qo'ygan xatolar uchun javob bermasligini ta'minlaydi.

Qonunda sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash maqsadida Sudyalar oliy kengashining barcha a'zolari Senat tomonidan saylash tizimini kiritish taklif etilmoqda.

Shuningdek, odil sudslovga erishish darajasini oshirish va sudyalar mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan qoidalari kiritilmoqda.

Sudyaning boshqa organlar va shaxslardan xoli bo'lishini ta'minlash maqsadida sudyalar muayyan ishlari bo'yicha hisobdar bo'limasligi qat'iy o'rnatilmoqda.

Bundan tashqari, sudning qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi sudyani lavozimidan ozod etish uchun asos bo'limasligi belgilanmoqda.

Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash maqsadida sudlar faoliyatini moliyalashtirish faqat davlat budgetidan amalga oshirilishini kafolatlovchi yangi modda kiritilmoqda.

Bu kabi yangilik va o'zgarishlar orqali keyingi yillarda yurtimizda amalga oshirilgan sud-huquq islohotlari natijalari konstitutsiya darajasida mustahkamlanmoqda.

Bekzod JINABOYOEV,
jinoyat ishlari bo'yicha Samargand shahar
sudi raisining o'rnbosari.

2023-yil 18-mart, shanba,
33-34 (23.754-23.755)-son

Navro'z
hammamiga
insoniylik,
mehr-oqibat va
bag'rikenglik
fanidan saboq
beradi.
Sh.MIRZIYOEV.

NURONIYLAR BOR JOYDA TOTUVLIK BO'LADI

Samarqand shahridagi Qurolli Kuchlar kichik mu-taxassislarni tayyorlash markazida nuroniyalar, na-faqadagi harbiylar va yoshlar ishtirotida uch avlod uchrashuvu tashkil etildi.



Tadborda "Nuroniy" jamg'armasi respublika boshqaruvi raisi Sodiqjon Turdiyev so'zga chiqib, keksa avlod vakillarining jamiyatagi o'mi, ular tomonidan joylarda olib borilayotgan ishlar haqida to'xtaldi.

- Nuroniylar bor joyda totuvlik, tartib-intizom va mehr-oqibat bo'ladi, - dedi S.Turdiyev. - Katta hayot tajribasiga ega otaxonu onaxonlar bugun mahallanligi yuzi, ularning iibrati hayoti, olib borayotgan ishlari yoshlarga o'nak. Biz, nuroniyalar birlashib, bu faoliyatlari avlodlar bo'lib ulg'ayadim.

Tadbir davomida faol nuroniy va nafaqadagi harbiylarning xizmatlari e'tirof etilib, tashkilotchilar tomonidan esdalik sovg'alari topshirildi.

F.FAXRIDINOV.

↓ Prezident farmoniga ko'ra

HARBIY XIZMATCHILAR VA XODIMLAR OILALARIGA E'TIBOR KUCHAYADI

Shu yilning 13-mart kuni davlatimiz rahbari tomonidan "Vatan himoya-si va el-yurtimiz tinchligi yo'lida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va xodimlar oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmon qabul qilindi.

Unga ko'ra, 2023-yil 1-apreldan boshlab:
- halok bo'lgan harbiy xizmatchi (xodim) oila a'zolariga biryo'la beriladigan naqaqa marhumming oxirgi egallagan lavozimi bo'yicha maoshi va harbiy (maxsus) unvoni maoshi yig'indisining 150 baravari miqdorida bo'ladи;

- harbiy xizmatchilarning davlat majburiy shaxsiy sug'urtasi doirasida harbiy xizmatchi halok bo'lganda to'lanadigan sug'urta summasi bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravari miqdorida belgilandi.

2023-yil 1-maydan boshlab:

- olinan mehnatga layoqatsiz har bir a'zosiga boquvhisini yo'qtog'nalik pensiyasi pensiyani hisoblab chiqish uchun olinadi-gan pul ta'minotining (ish haqining) 50 foizi miqdorida belgilanadi;

- oila a'zolari (ota-onasi, turmush o'rtoq'i, 23 yosha to'limagan farzandlari) daromadlari qaysi oyda olingen bo'lsa, o'sha oyda har bir oy uchun mehnatiga haq to'lash eng kam miqdorining 3 baravari miqdoridagi daromadlar bo'yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan ozod etiladi;

- belgilangan tartibda turarjoyga muhtoj, deb tan olingen taqqirda, turarjoy bilan birinchi navbatdagi tartibda ta'minlanadi;

- halok bo'lgan harbiy xizmatchining (xodimning) yangi nikohga kirmagan turmush o'rtoq'i va (yoki) harbiy xizmatchining (xodimning) qaramog'ida bo'lgan ota-onasidan biriga O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilari turarjoni ijaraga olganlik (ijarada turganlik) uchun har olylik pul kompensatsiyasini to'lash tartibi tabbiq etiladi.

2023-yil 1-iyundan boshlab:

a) halok bo'lgan harbiy xizmatchining (xodimning) farzandlari maktabgacha ta'limga muassasalarida bepul tarbiyalanadi. Professional va olyi ta'limga muassasalarida davlat granti asosida qo'shimcha kvotalar bo'yicha ta'limga olishi ta'minlanadi;

b) halok bo'lgan harbiy xizmatchining (xo-

dinming) ota-onalariga yiliga ikki marta temir yo'va havo yo'lovchilar transportidan bepul foydalanish huquqi beriladi;

v) halok bo'lgan harbiy xizmatchining (xodimning) oila a'zolari:

- ushu halok bo'lgan harbiy xizmatchilar (xodimlar) xizmatni o'tagan mas'ul vazirlik va idoralarning tibbiyot muassasalarida bepul tibbiy yordam olish huquqi saqlab qolinadi, shuningdek, tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlari doirasida tibbiy yordamni ustuvor ravishida olish va navbatdan tashqari shifoxona yotqizish imkoniyati yaratiladi;

- yuqori texnologik ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'sratuvchi tibbiyot tashkilotlari tomonidan Davlat budjeti mablag'larini hisobidan bepul tibbiy yordam ko'sratiladi;

- navbatdagi yilik mehnat ta'tildan qulay vaqtida foydalanish, shuningdek, yiliga ikki haftagacha muddatiga ishi haqni saqlanmay-digan qo'shimcha ta'til olish huquqi beriladi.

Halok bo'lgan harbiy xizmatchilar oila a'zolari O'zbekiston Respublikasi hududidagi sanatori-kurort muassasalarini bo'laralni sog'lomashtirish oromgohlari yiliga bir marta bepul sog'lomashtiriladi.

Shifokorlarning retseptlariiga asosan yiliga bir marta doris vositalari bilan bepul ta'minlanadi. Tibbiy va maxsus protez-optopediya moslamalari olib beriladi hamda jarrohlilik amaliyotlarning xarajatlari davlat tomonidan qoplab beriladi.

Og'ir tashxisli kasalliklari hamda nogironligi bo'lganlarga shifokorlarning retseptlariiga muvoqiq, yiliga bir marta doris vositalarining 50 foiziga bo'lgan summasi kompensatsiya qilinadi.

Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favquloda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati, Bojxon qo'mitsasi va Elektron texnologiyalar ni rivojlanish markazi har bir halok bo'lgan harbiy xizmatchi (xodim) oilasini otaliquqa oлади.

2023-yil 1-iyundan boshlab:

a) halok bo'lgan harbiy xizmatchining (xodimning) farzandlari maktabgacha ta'limga muassasalarida bepul tarbiyalanadi. Professional va olyi ta'limga muassasalarida davlat granti asosida qo'shimcha kvotalar bo'yicha ta'limga olishi ta'minlanadi;

b) halok bo'lgan harbiy xizmatchining (xo-



O'zimizning o'g'ri...

Ko'p qavatlari turarjoylar qurilishi haqida gap ketganda, suhbatlashayotgan 5 kishining 4 tasi qurilishdagi ko'zbo'ya-machilik, talon-tarojliklar haqida, quruvchilarning standartga mos uy qurishni bilmasliklari to'g'risida biri olib, biri qo'yib gapiradi.

Albatta, bu gaplar 100 foiz noto'g'ri deb hech kim aytolmaydi. Lekin qurilishga mas'ul tashkilot rahbari, quruvchilar va boshqalarning bari o'zimizning qarindoshimiz, qo'shnimiz, uzog'i hamshahrimiz ekanligini, shu joyning tarbiyasini olib, voyaga yetganligini, xullas, aybdor begona emasligini unutamiz. Birovni gapiramiz, o'zimiz ham shu ishni qilib, "Boshqalar ham qiyapti-ku, bir men bilan olam guliston bo'armidi", deb ovunamiz.

Damir va San'atjonlar ham o'zimizning odamlari. Lekin yugoroda aytganimizdek, o'zingdan top qabilida ish tutishdi: 2022-yil 15-oktabrda 15-oktabrba' o'tar kechasi oldindan jinoi til biriktilib, bi'r guruh bo'lishib, Qorasuv dahasida qurilgan ko'p qavatlari uyning tom qismiga g'ayriqonuni ravishda kirib, binoga o'nataligan "Siglen" nomli lifting ancha miqdordagi, ya'ni bahosi

43 million so'mlik signal beruvchi qismi, bir dona plata va bir dona transformer qurilmasini yashirin ravishda talon-toroj qilib, voqeja joyidan yashirinishgan.

Qizig'i, San'atjon binoni qurban jamiyatda elektrik bo'lib ishlagan va muqaddam 2019-yilda ham o'g'irlik jinoyati sodir etib sudlangan, Damirning aldovlariga ishonib, o'zi ter to'kib ishlagan joyiga xiyonat qilishgacha bordi.

Damir bilan San'at jazodan qutulib qolmadni, zarar joyiga qaytarildi. Biroq Damir uchun bu galgi qilimishiga og'irroq, ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi. Albatta, jazoning liberalashuvu bir imkoniyat, uni suiiste'mol qilish oqibati yaxshi bo'lmaydi.

Doniyor UZOQOV,
Samarqand shahar prokurori o'rinosari.

Bug'doyingiz tozami, go'shtni kimdan olyapsiz?

Bayram tantanalarini o'tkaziladigan mahalla, qishloqlarda, tashkilot, bog' va xiyobonlarda milliy taomlar - sumalak, xalisa, go'ja tayyorlash xalqimizning an'anaviy odati hisoblanadi. Bayram ishtirokchilari ana shu taomlarning shirin, xushta'm bo'lishi xohlaydi.

Shu sababli taomlarga ishlatalidigan masalilqar sifatiga, ularni tayyorlash va saqlashga alohida e'tibor berish lozim.

Sumalak, xalisa, go'ja va boshqa taomlarni tayyorlashda faqat laboratoriya tekshiruvidan o'tgan, sifati kafolatlangan mahsulotlardan foydalishan talab etiladi. Xususan, bug'doy begona o't-urug'laridan tozalangan bo'lishi, go'sht, sut mahsulotlari ham veterinar tekshiruvidan o'tkazilishi zarur.

Zaharlanish holatlarning oldini olish uchun avvalo, quyidagi larga e'tibor bermoq lozim: sumalak, xalisa, go'ja tayyorlashda ishlatalidigan bug'doy birinchidan, begona o't urug'laridan to'liq tozalangan, yuvilgul bo'lishi, ikkinchidan, laboratoriya tekshiruvidan o'tgan bo'lishi kerak.

Taom tayyorlashga jaib etilgan kishilar tibbyi ko'rikdan, sanitariya minimum kursidan o'tgan, ichak infeksiyalariiga staflolkok tashuvchanligiga tekshirilgan bo'lishi va shaxsiy

gigiyena qoidalariga rioya etgan holda ish olib borishi maq-sadga muvoqiq.

Xavfsizligi kafolatlanmagani, uy sharoitida tayyorlangan kon-servalar, salatlar, tez beziluchi kreml qandolat mahsulotlarini xarid qilmagan ma'qul. Tayyorlangan ovqatlarini shu kunning o'zida, ikki saat ichida targatish va iste'mol qilish lozim.

Yusuf RAHIMOV,
viloyat sanitariya-epidemiologik osoyishitalik
va jamaot salomatligi boshqarmasi ovqatlanish
gigiyenasi bo'limi mudiri.

JAMOAT TASHKILOTLARIKA
AJRATILAYOTGAN
MABLAG' ANIQ BO'LDI

Samarqandda xalq deputatlari
Samarqand viloyoti Kengashi huzuridagi ijtimoiy sheriklik bo'yicha
jamoat komissiyasining muhokama
yig'ilishi bo'lib o'tdi. Viloyatdag
davlat va jamoat tashkilotlari vakil
lari ishtirok etgan yig'ilishi jamoat
komissiyasi raisi F.Toshev olib
bordi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
2022-yil 29-apreldagi "Ijtimoiy himoyaga va
yordamga muhto aholi qatlamlarini moddiy
qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tad
birler to'g'risida"gi qarori hamda Parlament
komissiyasining 2022-yil 28-iyundagi qarori
ijrosini ta'minlash maqsadida jamoat komissiyasi
hamda Jamoat fondi tomonidan amalga oshiril
gan ishlar tahlii etildi.

Mazkr hujjalat jirosiga ko'ra, O'zbekiston
Nogironlar assotsiatsiyasi viloyat bo'limiga 100 million so'm
davlat subsidiysi ajratilishi bo'yicha takliflar
ma'qullandi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2023-yil 23-yanvardagi "Savdo-sanoat palatasini faoliyatini yanada takomil
lashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirler
to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida
Savdo-sanoat palatasini viloyat va shahar,
tuman bo'limlari faoliyati qayta ko'rib
chiqiladi. Shuningdek, O'zbekiston Karlar
jamiyati viloyat bo'limiga 147 million so'm,

O'zbekiston Ko'zi ojizlar jamiyati viloyat bo'lim
hamda shahar va tuman bo'limlari 1 milliard
286 million so'm, O'zbekiston Nogironlar as
sotsiatsiyasi viloyat bo'limiga 100 million so'm
davlat subsidiysi ajratilishi bo'yicha takliflar
ma'qullandi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2023-yil 23-yanvardagi "Savdo-sanoat palatasini faoliyatini yanada takomil
lashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirler
to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida
Savdo-sanoat palatasini viloyat va shahar,
tuman bo'limlari faoliyati qayta ko'rib
chiqiladi. Shuningdek, O'zbekiston Karlar
jamiyati viloyat bo'limiga 147 million so'm,

ga 446 million 600 ming so'm davlat subsidiysi
ajratish belgilangan.

Xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi
jamoat fondi tomonidan 2023-yilda Davlat
subsidiysi uchun umumi hisobda 7 milliard
987 million so'm, Davlat granti uchun 1 milliard
200 million so'm, nodavlat-notijorat tashkilotlari
qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy sheriklari
kuchaytirish uchun jami 9 milliard 418 million
so'm yo'naltiriladi.

Doston MALIKOV,
xalq deputatlari viloyat Kengashi
huzuridagi nodavlat notijorat
tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining
boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash
jamoat fondi direktori.

**Jomboy tumanining shimolida 41 kilometrga
cho'zilgan G'ubdin tog'lar yasta-nib yotib
di. Manbalarga ko'ra, u bundan 300 yillar
muqaddam qalin daraxt va butalar bilan
qoqlangan bo'igan. Hududda yashovchi aholi
yillar davomida ularni yoqilg'i sifatida ish
latib, o'rnida yalang'och adirlarini goldirgan.
O'tinsiz, dehqonchilik qilish uchun sharoti
yo'q yerlarda qolgan odamlar tog'ning etagi
ga ko'chib o'tib, Jomboy tumanining hozirgi
Qo'ng'iroq, Polvonariq, Qo'lboсти singar
mahallalarini tashkil etgan. Ammo halichaga tog'
bag'rini tark etmaganlar bor.**

OSMONGA QARAGANLAR QISHLOG'IDA BAYRAM



Tuman markazidan 25 kilometr uzodlikda joylashgan Qoraqosmoq qishlog'ining aholisi shular jumlsidasi. Jizzax viloyati bilan chegaradosh qishloqda bugun 35 ta xonadon bor. Ulardagi aholi asosan lalmi dehqonchilik va chovchilik hisobiga kun ko'radi.

Men bu yerga 1965-yilda qo'ng'iroq narigi tomonidagi qishloqdan kelin bo'lib 412 nafar mansabdar shaxs korrupsiaviy jinoyatlarini sodir etgani uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan. Ularning 17 nafari hokimlik, 6 nafari ichki ishlar, 11 nafari soliq idoralari, 49 nafar bank, 6 nafar olyi ta'lim, 46 nafar xalq ta'limi, 37 nafar sog'lioni saqlash, 11 nafari maktabgacha ta'lim, 13 nafari suv xo'jaligi, 37 nafari elektr energiyasi ta'minoti korxonasi xodimlarini hisoblanadi.

Bunday jinoyatlar oqibatida yetkazilgan moddiy zarar miqdori 55 milliard 600 million so'mni tashkil qilgan va tergov davomida 49 milliard 300 million so'mi undirilgan.

Matbuot anjumanidan so'ng ommaviy axborot vositalari vakillari viloyat prokuratasida fugarolari qabul qilish va ular murojaatlari bilan ishlash jarayonlariga guvoh bo'ldi.

— Uch avlod uchrashuvlarini atay tumanimizning eng chekka hududlarida tashkil etyapmiz, - deydi "Mahalla" xayriya jamaot fondi tuman bo'limi raisi Xafiza O'sarova.

— Bu yerdagi aholi, ayniqsa, yoshlar e'tiborga, daldaga ko'proq muhto. Ular tadbirlarga jaib qilgangan rahbar xodimlar, olimlar, shifokorlar, jamiyatimizning vijdoni sanalgan nuronilari, katta yutuqlariga erishish tengoshshalar bilan hamsuhbat bo'lib, dunyoqarashini kengaytiradi, motivatsiya oladi. Kuch hanjihatlikdadir. Agar shu uch avlod vakillari birlashsha, ham hududagi muammollar yechim topadi, ham yangi tashabbuslar oshiladi.

Qoraqosmoq qishlog'iga kelsak, to'g'ri, undagi aholi bu yilgi anomal qishdan qiyin chiqdi. Lekin hudud infratizilmasini yaxshilash, xususan, yoshlarning ta'limgarbiya oshishiga qarab.

— 2021-yilda qishlog'ima 9-umumta'lim maktabining filiali ochildi, - deydi o'qituvchi Baxtiyor Ohmurodov. - 17 nafr bola boshlang'ich ta'limga olyapti. Yoshlarini ilmi, kasbi qilishga intilayapmiz. O'tgan yili qishloqda tibbiyot punkti tashkil etildi.

Asta-sekin hayotimiz yaxshilab, boshqa tomonda nuroniya va yoshlar o'tasida mushoira, g'azalxonlik av

↓ 21-mart - O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov tavallud topgan kun

O'zbek she'riyatining buyuk darg'alaridan biri – millatimizning ardoqli farzandi, shoir Abdulla Oripovning betakror ijodi, dilbar she'riyati so'z san'atining latofatidan bahramand etadi. Shoiring "O'zbekiston", "Men nechun sevaman O'zbekistonni", "Ona tilimga" kabi she'rлari xalq tili ga ko'chgan, tom ma'noda xalqning mulkiga aylangan. Shu sababdan ulug' shoir har vaqt adabiyot, she'riyat bilan qatorda eslanadi.

"Hozir ham uyimizga Abdullaning she'ri yozilgan qog'oz ko'tarib kelishadi"

Bugun Abdulla Oripovning bolaligi, hayot yo'l'i va ijodi haqida shoiring akasi, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chovchachilik va biotexnologiyalar universiteti professori Razzoq Oripov xotiralarini tingladik.

- Abdulla oilmazida kenja o'g'il edi, - deb eslaydi Razzoq ota. - Bolaligim Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi Neko'z qishlog'iда boshqa tengdoshlarimiz qatori mol, qo'y boqib, suv tashish, pichan o'rish bilan o'tdi. Bari kechagidek yodimda. O'sha vaqtarda ham Abdulla boshqacharoq edi: xayolchan, sertasir, o'chil bo'lish bilan birga kitobga ko'ngil qo'ygandi. U halil maktabga bornay turib, so'zlarni bir-biriga uysaq qilib aytilib yurishni xush ko'rardi.

Yillar o'tdi, voyaga yetdi, aka-ukalar barchamiz turli oliy ta'lim muassasalarida o'qidik. Abdulla ham maktabni bitirib, Toshkent davlat universitetining jurnalistika bo'limiga o'qishga kirdi va o'qishni tamomlab, poxtaytida ish faoliyatini boshladi. U talabalik paytitaridayoq shoir bo'lib, xalqqa tanlib qolgandi.

Abdulla insonlarni yaxshi va yomonga ajarishni bilmas, hamma bilan birdek suhbat qurib, kirishib ketardi. U tug'ma iste'dod sohibi edi, hech qachon oddiy she'r yozmagan. Agar har bir yozganini qirqata abdalyotshun tahil qilsa, qirq xil ma'no chiqaradi. E'tiborli jihat, odamlar hozir ham uyimizga Abdullaning she'ri tushirilgan qog'oz ko'tarib kelishadi. Ha desangiz, shoir bilan o'tirganimizda yozib olgandim, deb qo'limga varaqni tutqazadi. Bu she'rler hech bir kitob yoki gazeta, jurnalda yo'q. Shoiring ilhomni kelib, davralarda she'r uysaq qilib qolsa, o'sha yerda aytilib chiqib ketaveradi.

Bu kabi voqeaga o'zini ham ko'p uvoh bo'lganman. Abdulla bilan Qashqadaryoda qandaydir bir tadbirda uchrashib qoldik. Ikkalamizni ham viloyat partiya qo'mitasining birinchi kotibi Qarshi cho'lining o'zlashtirilayotgan holatini ko'sratib kelaman, deb mashinasiga taklif qildi. Nishon cho'l bo'ylab uzoq yurdik va yo'l ustida bir chaylada to'xtadi. Chayla atrofida kichkina maydonchada rayhon ekilgan ekan. Chayladan bir opa chiqib, bizlarni kutib oldi. Birinchi kotib o'zini tanishtirib, sizga Abdulla shoirni olib keldim, deb maqtandi. Shunda opa o'sib turgan rayhondan olib, shoirga "Xush kelibsiz", deb uzatdi. U yerda ko'p qolmadik. Abdulla qaytish oldidan opaga qarab, "Sizga katta muvaffaqiyatlar tilayman", dedi-da, so'ng "Rayhon" nomli she'rini o'qiy boshladi. Bu mashhur she'r shu yerning o'zida yozilgan edi.

MUNOJOTNI TINGLAB...

Shoirni mashhur qilgan she'rлari dan biri "Munojotni tinglab" she'r edi. Bu she'rning yaratilishi ham o'ziga xos tarixiy voqeа bilan bog'liq. Kunlarning birida "Munojot" kuyini tinglagan shoir unga mahliyo bo'lib, musiqasi va ashulasi Yunus Rajabiy bilan bevosita bog'liqligini bilib, u kishi bilan suhbatlashishga qaror qildi. Domlaning manzilini bilgach, uyiga boradi. Xonardon egasi chiqib qarasa, qandaydir yosh yigit. "Bu uy Yunus Rajabiy domlanikimi, adashmadimmi?", so'raydi u. Domla "Yo'q, adashmadingiz" deb notanish yigitini ichkariga taklif qildi. Shoir ko'rmsadan, bilmasdan va eshitmasdan



she'r yozmasligini va yotqirmsligini aytadi. "Chindan ham sizning ijronzida bo'lsa, chalib bersangiz, men tinglayman", deydi. Shundan so'ng hofiz akasi, musiqashunos Rixsi Rajabiy jo'rligida "Munojot"ni bir necha bor takror chaladi. She'r bitgandan so'ng Abdulla bo'ldi, deb ularni to'xtatadi. Shoir endi mana bu she'rni ko'ring, deb "Munojot"ni o'qlib beradi. O'sha paytda Yunus Rajabiydek ustoz san'atkor bu yosh yigitning iste'dodiga qoyil qoladi. Ko'p o'tmay, ushu sho'r xalq tiliga ko'chib, shoirga katta mashhurlik olib keldi.

Uning barcha she'rлari dunyoga kelishi mana shu kabi takrorlanmas voqelik bilan bog'liq.

SAMARQANDGA OSHNO QALB

- Abdulla Samarqand shahrini juda ham sevardi, - deya so'zida davom etadi Razzoq Oripov. - Bo'sh vaqt topsa, Amir Temur maqbarasi, Registon, Shohizinda va boshqa ko'plab yodgorliklarni ziyorat qildi. Devorlardagi arabcha yozilgan so'zlarni, mohirlik bilan chizilgan gul va naqshlarni zuylariga, ko'zlariga surib, uzoq o'ya cho'mib ketardi. So'ng menga shunday derdi: "Aka, bularning bari oddiy narsa emas, ularni teran o'lab tahlii qilsangiz, yillar bilan bog'liq tarix va kelajak tasvirlangan. Bular gul va naqsh emas, ularda so'zlar yashirin".

Ziyoratgohlarni aylanib chiqqandan so'ng shoir Samarqand va Qashqadaryoni ajaritib turgan tog' tizmalariga, Taxtaqoracha dovoniga chiqib, yulduzlarini kuzatishni yaxshi ko'rardi, she'rлar bitardi. Shahrisabz, Kitob, Yakkabog' tumanlari hududi bu dovdonan chirolyi ko'rinishi unga ilhom bag'ishlardi. Dovonga tez-tez borib, voha manzaralarini entikib kuzaqtardi.

Xalqimizning sevimli shoiri, aziz farzandi Abdulla Oripov ijodining rangin qirralari yillar o'tgani sayin yangi-yangi sahfalarini ochli boradi. Shoiring o'zi aytganidek, haqiqiy ijodkorning ijodi abadiy yashaydi. Shoir hayoti va ijodini kuzaqtar ekansiz, uning tafakkur tomchilarini inson ongingin ma'vosi ekanligini anglab borasiz. Bu Abdulla Oripovni chinakam ma'noda donishmand shoir ekanligidan dalolat beradi.

Husan OLIMOV.



Ulug'bekning tug'ilishi ko'plab insonlar hayotini saqlab qolgan

Mirzo Ulug'bek buyuk o'zbek astronomi va matematigi, davlat arbobi sifatida tarixda nom qoldirdi. Uning eng buyuk ishi – Samarcand ilmiy maktabini, o'sha davr akademiyasini barpo etgani edi. Quyida Mirzo Ulug'bek hayoti va faoliyatiga oid ayrim qiziqarli faktlar keltirildi.

Amir Temur 1394-yilda Iroqdagagi Mordin qal'asini qamal qiladi. Shu vaqtida Sohibqironning Sultoniyadagi qarorgohida Ulug'bek tug'iladi. Tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida yozilishiha, Amir Temur huzuriga chopar kelib, Ulug'bekning tug'ilgani va munajjimlar bu bola kelajakda buyuk inson bo'lishini bashorat qilganlari xabarini yetkazadi. Sohibqiron xursandligidan Mordin qal'asi qamalini to'xtatib, uning xalqiga yuklangan to'lovi bekor qiladi.

↓ 22-mart – Mirzo Ulug'bek tavallud topgan kun

O'N BESH YOSHLI ULUG'BEK BOBOSI TEMURNING SAMARQANDDAGI TAXTIGA O'TIRGAN

Xuroson hokimi, Amir Temurning to'rtinchı o'g'li Shohruhx 1409-yilda temuriylar davlatining oliy hukmdori sifatida e'tirof etilgach, qo'lg'a kiritilgan Movarounnahri Turkiston viloyati bilan birga idora etishni Ulug'bekka topshirib, Sohibqiron vaziyatini qayta tikiadi. O'smir yoshdagi Ulug'bek u hundlarni dastlab Shohmalik yordamida bosh-qargan bo'lsa, 19 yoshidagi Movarounnahri mustaqil idora etishta kirishdi. Ulug'bek o'z hukmronligi davomida ikki marta yirik harbiy yurish qildi.

BOBOSI SOHIBQIRON SAG'ANASIGA NEFRIT QABRTOSH QO'DIRGAN

Samarqanddagi Amir Temur maqbarasiga temuriylar sulolasiga mansub kishilar dafn etilgan. Ziyoratxona yugorisi (to'rija) Temurning piri Mir Sayyid Baraka, uning oyog tomonidan Amir Temur dafn qilin-gan. Sohibqiron sag'anasiga qo'yilgan ko'p nefrit qabrtoshini Ulug'bek Mo'g'ulistonqa qilgan yurishi vaqtida olib kelgan. Toshda Amir Temurni ulug'laydigan so'zlar, uning shajarasini hamda marsiyalar o'ymakori yozuvlarda bitilgan. Keyinchalik Ulug'bekning o'zi ham shu yerga dafn etilgan.

BIBIXONIM JOME' MASJIDIGA ULKAN LAVH O'RNNATTIRGAN

Amir Temur Bibixonimga atab qurdirgan Bibixonim jome' masjidini hovlisi o'tasida marmartoshdan yasalgan ulkan lavh – Qur'on o'qilidigan maxsus kursi bo'lib, u dastlab asosiy bino ichida turgan (1875-yilda hoví o'rtasiga chiqarib qo'yilgan). Lavh Ulug'bek farmoniga binoan XV asr o'rtaida yasalgan. Unga "Sulton" azim, olyi himmatli xoqon, din-dyonat homisi, Xanafiya mazhabining posboni, aslzoda sulton, ibni sulton, amiri mo'minin Ulug'bek Ko'ragon", deb bitilgan.

SULTON BO'LSA-DA, TALABALARGA DARS BERGAN

Mirzo Ulug'bek Samarcanda ikkita madrasa barpo etgan va boshqa yirik olimlar qatoridagi o'zi ham bu madrasalarda haftada bir marotaba ma'ruba o'qigan. Boshqa vaqtini ko'proq astronomik kuzatishlarga, "Zij" ustida ishlashga va dastlab ishlashiga bag'ishlagan. Yaqin yillargacha u faqat astronom va matematik deb hisoblanardi. Lekin XX asr oxirida uning ijodi serqirra bo'lib, tarix, she'riyat va musiqa bobida ham qalam tebratgani aniqlandi. Ulug'bek she'rlar ham yozgan.

ULUG'BEKNING XAZINASINI UNING SHOGIRDI SAQLAB QOLGAN

Ulug'bek vafotidan so'ng uning Samarqanddagi 15 ming kitobdan iborat mashhur kutubxonasi xavf ostida qoladi. Kutubxonani "o'z davringi Ptolomeyi" nomini o'lgan Ali Qushchi saqlab qolgan, degan taxminlar bor. Rivoyatlarga qaraqanda, kutubxonadagi kitoblarning ko'p qismini Ali Qushchi Samarqand yaqinidagi Hazrat Bashir qishlog'iqa ko'chirgan. Ko'p o'tmay, ta'qiblardan qochib, Samarqanddan chiqib ketishga majbur bo'lgan.

TA'LIMNING SIFATI

muallimning obro'si va salohiyati bilan o'lchanadi

Bu xulosani shu sohadagi qariyb qirq yillik faoliyatimga tayanib aytayman. Davr, tizim, siyosat o'zgarishi mumkin, lekin ta'limga oid talablar o'zgarmaydi. Tarbiya ko'rmagan bolada ilm olishga ishtiyoq bo'lmaydi, o'qituvchi o'quvchiga tushuntirishigina emas, uni ishontira olishi ham zarus, muallim qadrlanmagan joyda ta'lum sifatidan umid qilmang va hakozo.

Kamina mustaqillik yillarda ta'limga bo'lgan o'zgarishlar, xatolar va yutuqlarni tahsil qilishdan yiroqman. Chunki bu haqda gapirmagan odam qolmadni. Qolaversa, davlatimiz rahbari keyingi yillarda deyarli har bir chiqishi va muloqotida mamlakatimizda ta'lum tizimi holatini atroficha tahsil qilib, yangi vazifalarni belgilab berayotir. Quvonchli shundaki, u kishi sohadagi og'rigli nuqtalarni ko'sratib, oqilona yechimlarni ham taklif etayotir va bu takliflarni ro'yobga chiqarishga bosh-qosh bo'lmoida.

Keling, keyingi 5-6 yil ichida ta'limga yuz bergan o'zgarishlarni bir eslab o'taylik. Avvalo, akademiklar qadri qaytariladi, ota-onalar istagi bilan maktablar 11 yillik tizimga o'tdi, olyi ta'limga o'qishga kirishdagini poroxo'rlikka barham berildi, bitiruvchilarining oly o'quv yurtiga o'qishga kirish ko'rsatkichi 9 foizdan 33 foizga yetdi, xorijiy tillarni o'rganish uchun mislisiz imtiyozlar yaratildi, maktablar uchun ularning bitiruvchilarining oly o'quv yurtlariga kirishi asosiy mezon qilib qo'yildi, Prezident maktablari, ijdod maktablari, ixtisoslashgan maktablar ochildi, umumiy ta'lum jarayonida hunar o'rganishga imkoniyat yaratildi. Muhimmi, muallimlar qadri oshdi, maoshi ko'tarildi...

Bunday o'zgarishlar bizning ta'limga bo'lgan nuqtai nazارимизни o'zgartirdi. Xususiy maktab va maktabagacha ta'lum bizning yoshlar iqtidorli ekanligini ko'rsatdi.

Prezident Sh.Mirziyoyev ana shu jarayon natijasiga qarab, oldimizga



Uchinchini Renessans tamal toshini qo'yish vazifasini qo'ydi. Zero, bu olijanob maqsad xalqimizning ar'analariga, ilmga ishtiyoqi va zakovatiga, qisqa muddatda erishgan natijalarimizga katta ishonch deb bilaman. Binobarin, o'quvchilarimizning xalqaro miyosuda ta'lum sohasida erishayotgan yutuqlari ham fikrimizni isbotlab turibdi.

Maktab haq qanday holatda ham ta'limga o'chog'i, markazi hisoblanadi. Aynan shu yerdan ma'rifat, tajribalar shakllanadi, aynan shu maskanda farzandlarimizning fazilatlari, ilmga intilishi paydo bo'ladi, hayotga tayyorligi oshadi. Qolaversa, o'quvchilarining mahoratini ham, tajribalarni qurish, ularni ilg'or ta'lum texnologiyasi bilan ta'milashga alohida e'tibor bermoqda.

Bizda yaxshi maktablar ko'p. Bu maktablarda ilg'or tajribalar, yaxshi


ijtimoiy muhit shakllanib, o'quvchilar bilim olishda katta yutuqlarga erishyapti. Afsuski, hali hamma maktablarda ham ko'ngildagidek muhit yaratma olmayapmiz. Nazarimda, bu dolzorbish eng katta vazifa hisoblanadi. Avalo, maktabga rahbar (direktor, direktor o'rinnbosari) tayinlashda xolislik, ochiqlikka erishish lozim. Toki, jamaoa rahbarini o'zi tanlab olsin. Direktor va uning o'rinnbosari vazifa taqsimoti aniqlanishi va ular maktabdagagi holat uchun o'z mas'uliyatdo doirasida javob berish zarur. Bu o'rinda oshkorlik muhim ahamiyatga ega, ya'nii dars taqsimoti, ustamalar va boshqa rejalar ijrosi ochiq muhokama etilishi, har kimga tegishli baho berib borilishi kerak, deb hisoblayman. Direktor va uning o'rinnbosari jamaoa oldida mavridi bilan hisob berib borishi kerak.

Tajribalar shuni ko'sataytiki, muallim maktabning mavqeini belgilab beradi. To'g'ri, maoshning oshishi, ortiqcha tashvishlardan xalos bo'lishi o'qituvchini rag'batlantiradi. Ammo ta'lum sifati faqat shungagina bog'la-nib qolmagani. Bu yerda o'qituvchi mas'uliyat ham bor. Mas'uliyat esa faqat talab qilish orqali oshib boradi. Demak, biz muallimni o'z ustida ishlashga, darsga puxta hozirlik ko'rish va mashg'ulotlarni ta'sirli o'tishiga ham o'rgatishimiz, undashimiz zarur. Toki, u o'z yutuq va kamchiliklarini o'z vaqtida biliq borsin. Dars jarayoni, o'quvchilar munosabati muallim faoliyatini baholashning eng maqbul usulidir. Shunday ekan, aynan shu jarayonlar maktabda ochiq bo'lishi zarur. Turli reytinglarni belgilashda ham muallimlar fikri hisobga olinishi kerak.

Saidahmad USMONOV,
pedagogika fanlari nomzodi,
viloyat hokiming xalq ta'limi
masalalari bo'yicha maslahatchisi.

SAMARQAND VILOYATI AVTOMOBIL YO'LLARI HUDUDIY BOSHQARMASI

azaliy qadriyatlarimiz va an'analarimiz timsoli –
Navro'zi olam
bilan barcha yurtdoshlarimizni tabriklaydi.



PAST DARG'OM TUMANI TIBBIYOT BIRLASHMASI JAMOASI



Barcha hamyurtlarimizni
yangilanish va yasharish bayrami –

NAVRO'ZI OLAM

bilan tabriklaydi.

Xonadoningizga
tinchlik-osoyishtalik,
fayzu baraka tilaymiz!



PAST DARG'OM TUMANI XALQ TA'LIMI BO'LIMI JAMOASI

bunyodkor xalqimizni

NAVRO'Z

bilan qutlaydi.

Mustahkam sog'lik, yaxshi kayfiyat
doimiy hamrohingiz bo'lsin!



"SAMARQAND KAMALAK INVEST TEKSTIL"

MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI JAMOASI

viloyatimiz ahlini

NAVRO'Z

bilan samimiyy tabriklaydi.

Sharqona yangi yil xonadoningizga quvonch va
shodlik, qut-baraka olib kelsin!



SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI MA'MURIYATI VA KASABA UYUSHMA QO'MITASI

barcha yurtdoshlarimizni

Navro'z bayrami

bilan qutlaydi.



"TEMIR YO'L DEHQON BOZORI"

MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI JAMOASI

*jonajon yurtimiz xalqini yangilanish va
yasharish ayyomi -*

Navro'zi olam

bilan samimi tabriklaydi.

*Qalbingizdan quvonch, yuzingizdan
tabassum arimasin, azizlar!*

TEMIRYO'L DEHQON BOZORI

Xizmatlar litsenziyalangan.

"URGUT SAVDO KOMPLEksi"

MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI JAMOASI

barcha hamyurtlarimizni milliy bayramimiz –

Navro'z

bilan tabriklaydi.



Xizmatlar litsenziyalangan.

Milliy o'yinlar xalq madaniyati va san'atining ajralmas bo'lagi, yoshlarni tarbiyalash va jamiyatdagi o'rnini topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Yurtimizda tarixan juda ko'p milliy xalq o'yinlari bo'lgan va ular avlodan avlodga o'tib kelgan. Bu o'yinlarning dastlabki namunalarini Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk", Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig", Firdavsiyning "Shohnoma", Kaykovusning "Qobusnomasi", Alisher Navoiy va boshqa mutafakkirlar asarlarida uchraydi.

Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asarida 150 ga yaqin milliy o'yinlar va 20 dan ortiq bolalar o'yini tafsif qilingan. Jumladan, "qorang'unii" (qorong'ida qo'rg'on olish), "bandol" (asir olish), "o'tish-o'tish" (davra o'yini), "chavgon" (to'p o'yini), "o't bandol" (tayeq o'yini), qilichbozlik, naydarlik haqida ma'umot beriladi. Mavsumiy "tolbargak", "gul o'yini", "qorxat", "yomg'ir yog'aloq", "topishmoq top", "tez aytish", "kim atydi" ham shular jumlasidan.

O'g'il bolalar "Chillak", "Tortishmachoq"-ni yaxshi ko'rsa, qizlar "Supur-supur", "Oq terakmi-ko'k terak", "Happak tosh" kabiriga qiziqigan. O'yinlarga e'tibor bersangiz, hammasi ham harakatdan yoki jismoniy va aqliy mehnatdan iborat. Masalan, tez aytish bilan bolalar nutqidagi nuqsonlar to'g'rilangan bo'lisa, topishmoqlar orqali zehni oshigan. "Tortishmachoq", "Chillak" kabi o'yinlar bolalarning jismoniy imkoniyatlarini yanada oshirgan.

Vaqt o'tishi bilan bu harakatlar takomilashib borgan. "Tosh ko'tarish", "Ot ustida



SUMALAK SAYLI

"DISKOTEKA" emas

Bahorni xalq sayillarisiz tasavvur qilish qiyin. Navro'z bayrami arafasida milliy urf-odatlарimiz, qadriyatlarimizni o'zida aks ettirgan tadbirlar tashkil etilishi an'anaga aylangan. Uldordan biri sumalak sayli.

Momolarimiz boshchiligidagi qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug' birlashib, doshgozonlarda sumalak tayyorlashadi. Ma'lumki, mazkur bahor taomi uzoq vaqt pishiriladi. Bu vaqt davomida jarayonda ishtirok etayotganlar serikib qolmasligi uchun o'yinkulgi qilishadi. Laparlar, o'lanlar aytishadi. Bu bilan kayvonilar og'izdan og'izga o'tib kelayotgan, tarbiyavi ahamiyatiga ega bo'lgan ashulalar yosh kelinlariga, qizlarga o'rnatadi. Bu yaxshi albatta, ammo...

Keyingi yillarda yosh yigit-qizlar, xususan, o'quvchilar ham sumalak pishirishni urf qilgan. Lapar va o'lanlar o'nriga "diskoteka" qilib, mahallani boshiga ko'tarishadi. Tuz solinmasa ham totli chiqadigan ba taomni tayyorlash muqaddas hisobanishini, uni qo'zg'ashda yaxshiyatlar qilishni to'liq anglab

XALQ O'YINLARI VA MILLIY SPORT TURLARI - QADRIYATLARIMIZ TIMSOLI



kurash", "Ko'pkari", "Lanka", "Arqon tortish", "Chillak" va boshqa shu kabi xalq o'yinlari ko'rinishiga kelib, yoshlarning sevimli mashq'uloti va musobaqalariga aylangan. Keyingi vaqtida yoshlar, umuman, aholi o'rtaida xalq o'yinlari va milliy sport turlariga e'tibor oshmoda. Ayniqsa, Navro'z bayrami arafasida "Arqon tortish", "Kurash", "Tosh ko'tarish", "Uloq ko'pkari" musobaqalarini doimiy o'tkazib kelinmoqda. Shuningdek, turli bayram va festivallarda ham musobaqalar tashkil qilinapti, ta'lim muassasalarining jismoniy madaniyat yo'nalishi dasturlarida xalq o'yinlari o'z ichiga olgan harakatlari o'yin darslari o'qilib, yangi qo'llanma va adabiyotlar yaratilmoqda.

Jumladan, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarcand filialida malaka

oshiruvchi maktabgacha ta'lim muassasalarini jismoniy tarbiya yo'riqchi-uslubchilari hamda umumta'lim maktablari jismoniy tarbiya o'qituvchilariga "Harakatlari o'yinlarni o'qitish uslubiyati" fani bo'yicha amaliv va nazary mashq'ulotlar tashkil qilingan. Shu bilan bir qatorda filial professor-o'qituvchilar hamda tashlovlarchilarga maxsus o'quv seminarlari va har xil musobaqalar, mahorat darslari o'tilmoqda.

Viloyatda kurash, belbog'li kurash, o'zbek jang san'ati va ot sporti (uloq-ko'pkari) kabi milliy sport turlari bo'yicha samarali ishlar qilinmoqda va ijobjaviy natijalarga ham erishilgan. Jumladan, viloyatimizning barcha tumانlаридаги sport maktabalarida kurash bo'yicha o'quv mashq'ulot sekssiyalari tashkil etilgan.

Ayniqsa, respublika bo'ylab tashkil etilgan "Besh tashabbus olimpiadasi" musobaqalar-

ida kurash sport turining kiritilishi milliy sport turiga qaratilayotgan e'tibor natijasidir. Hozirda viloyatda kurash bilan shug'ullanadiganlar soni 2700 nafardan ortiq bo'lib, sportchilar o'tgan yil xalqaro va respublika musobaqalarida 12 ta oltin, 21 ta kumush, 49 ta bronza medalni qo'iga kiritdi.

Belbog'li kurash bo'yicha Samarcanda 7 nafar murabbiy qo'p ostida 70 nafardan ortiq sportchi shug'ullanadi. Ularning 8 nafari O'zbekiston temra jamaosi a'zosi.

Viloyatda o'zbek jang san'ati bo'yicha 2500 nafar sportchi shug'ullanadi. Ularning 200 naftarga yaqini qora belbog' sohibi, 20 dan ortiq'i jahon championi, 100 nafari O'zbekiston championi, 30 nafari sport ustasi, 150 naftarga yaqini sport ustaligiga nomzod va 3 nafari davlat mukofoti sohibi.

Viloyatda ot sporti (uloq-ko'pkari) rivojlantrishi borasidagi ishlar ham e'tiborga molik. Birgina 2022-yilda viloyatda 50 dan ziyyod viloyat, O'zbekiston championati hamda xalqaro turnirlar o'tkazildi. Jomboy tumanida "Qoraqasmox" otchoparida uloq-ko'pkari musobaqasida yuritimizning turli hududlaridan, shuningdek, Qozog'iston va Qirg'iziston davlatlari chavandozlar ishtirok etdi. Ot sportini rivojlantrish maqsadida chavandozlar sport maktabi ochildi va qorabayir, axaltekin zotli 16 bosh ot olib kelindi. Hozirda maktabda 100 naftarga yaqin yosh o't sportining "besh-kurash", "ot yo'ttirish", "polo", "to'siqalar dan sakrash", "uloq-ko'pkari" yo'nalishlari bo'yicha shug'ullanmoqda. Shuningdek, bo'linmalarida xizmat otlaridan foydalanlangan holda mahalla yoshlari va maktab o'quvchilar uchun mashq'ulotlar o'tkazish tizimi yo'Iga qo'yilgan.

Hamroqul ROFIYEV,
Jismoniy tarbiya va sport
mutaxassislarining malakasini oshirish
instituti Samarcand filiali professori.

Tabiat taqvimining Yangi yili

Sharqda Navro'z bayrami 21-mart - tabiat uyg'onayotganda, kun tun bilan tenglashganda, yangilanish barq urchanda nishonlanadi. Sababi, shu kuni yangi Quyosh tug'iladi, Yer uyg'onadi.

Navro'zni bayram sifatida nishonlash insoniyatning eng qadimgi, dehqonlar orasida Quyoshga sig'inish endigina paydo bo'la boshlagan davrga borib taqaladi. Manbalarda keltirilishicha, miloddan avvalgi 648-330-yillarda ahamoniylar saltanatida Navro'z zardushtiylikning diniy bayrami maqomini oлган.



BMT 21-MARTNI "XALQARO NAVRO'Z KUNI" DEB E'LON QILGAN

Navro'z madaniy xilma-xillik va xalqlar, turli jamiyatlar o'tasidagi do'stlilikni targ'ib qilgantigi sababli uni nishonlash UNESCO mandatiga mos deb topilgan.

Xususan, 2003-yilgi Nomoddiy madaniy-merosini muhofaza qilish to'g'risida konvensiyaga muvofiq, 2009-yilda Navro'z insoniyatning nomoddiy-madaniy merosining Reprezentativ ro'yxatiga kiritilgan.

2010-yilda BMT Bosh Assambleyasini rezolyutsiyasida 21-mart "Xalqaro Navro'z kuni" deb e'lon qilindi. Bu Navro'zni nishonlayotgan davlatlarning ushbu kun bilan bog'liq madaniyat va an'analarini saqlash hamda rivojlantrishiga qaratilgan sa'y-harakatlarni oqishlайди.

Navro'z yangi yil boshlanishi, davlat bayrami sifatida nafaqat O'zbekiston, balki Eron, Afghoston, Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Albaniya, Iroq Kurdistoni, Hindiston, Makedoniya, Turkiyada, Rossiyaning janubida - Tatariston, Boshqirdistonda keng nishonlanadi.

YAXSHILIK UFURGAN AN'ANALAR

Navro'zni nishonlash an'analarini uning ko'p asrlar tarixi davomida deyarli o'zgarmagan. Barcha mamlakatlarda bayramga oldindan tayyorlagilok ko'rildi: uy, hovli va ko'chalarda umumiyo'z tozalash ishlari bajariladi, ba'zi xalqlarda uyga gullagan daraxt novdalari qo'yiladi, yangi kiyim kiyiladi, bayramona milliy taomlar tayyorlanadi. Qarindosh-urug', qo'ni-qo'shni, keksalar va bemorlarni ziyorat qilish, xalq sayillari, bayram bozorlari, sport musobaqalarini tashkil etish, ko'chatlar ekish, dala ishlarni boshlash odat tusiga kirgan.

Qadimgi marosimga ko'ra, yangi yilda birinchi nihol hududning eng keksa va hurnatli a'zosini tomonidan qadaladi. Shu kunlarda oqsoqol, ota-onasi va ustozlar duosini olish juda muhim. Bu kunda odamlar bir-biridan mehribini dariq tutmay, advovat va gina-kudratni umutishga, bir-birining aybini kechirishga harakat qilishi kerak.

Navro'zda har bir qalb o'zining chin ildizlariga, tabiatga oshiqadi, yashil maysa, o'rmalab chiqqan hasharotga quronadi, butun qalbi bilan yashnayotgan hayotni sevadi. Olam esa gulga, iforga, zavqqa to'lib boraveradi.

Internet ma'lumotlari asosida G.XOLDOROVA tayyorladi.

Navro'z

Navbahor keganda ochdim ta'rifin aytmoqqa lab.
Subhidam go'yoki yetishdi non ila qaymoqqa lab.

Tong sahar soldim nazar tog'laru sari,
Intizorlik birla cho'zdim shu'lasi ofoqqa lab.

Yonginamdan soy oqardi sho'x tarannum aylabon,
Shodligimdan suv simirdim, tegdi, o, qirg'oqqa lab.

Chiqqan erdim boqqa, ko'rdirim, sho'x sabo siyab mayin,
Bo'sa olgandek bosarkan g'unchayu yaproqqa lab.

Otdi tong, ko'zdan yo'qoldi kavkabi g'uj'on, vale,
Neiloj, qo'ydim keyin shoxlardagi bodroqqa lab.

Lolalardan chambarak qilmoqni etdim ixtiyor,
Ilkima oldim va tutdim lolaqizg'aldoqqa lab.

Bir g'azal aytmoqchi bo'ldi vasfida Mavludakim,
Shul sababdin ochdi barcha do'st ila o'rtoqqa lab.

Mavluda RO'ZIYEVA,
Ishtixon tumani.

Bahor

Cho'qqlarda gulkular yoqib,
Bahor keldi, gul bahor keldi.
Quvonchdayin chaqmoqlar chaqib,
Navbahorga ohorlar keldi.

Marjon kabi tizilib ko'kda,
Uchib keldi turnalar qator.
Xush nasimlar esar atrofa,
Gunchalarda ko'z ochar bahor.

Telbalanib shovullaydi soy,
Boychechaklar bodrab ochilar.
Mitti-mitti yulduzcha bo'lib,
Qo'ziggular har yon sochilar.

Adirlarni iforga burkab,
Binafashlar ko'z yorar nogoh.
Kengliklarning adog'larida
Pildiraydi to'rg'ay tortib oh.

Ko'ngillarda orzular bisyor,
Chor tarafning zavqi havasli.
Yuraklarga jo'shoqinlik berar,
O, bu go'zal navbahor fasli.

Narzitosh YUSUPOVA,
Samarqand shahri.

Navro'zni qanday taomlar bilan kutib olamiz?



18-MART

Buvigul BERDIYeva - 1954-yilda Jomboy tumani tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi.

19-MART

Hojji MUIN Shukrullo o'g'li - (1883-1942) Samarqand shahrida tug'ilgan. Ma'rifatparvar shoir, jurnalist.

25-MART

Ahmad SHOYMURODOV - (1936-2020) Samarqandda tug'ilgan. Haykaltarosh. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqt:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'HASANOV.


Navbatchi:

S.MARDIYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 17 731 nusxada chop etildi. Buyurtma 152. Hajmi 4 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshehba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.